

Date: 19<sup>th</sup> November-2024

**VIZUAL, AUDIAL VA KINOSTETIK XOTIRALAR LARNING XORIJIY SO'ZLARNI  
O'RGANISHDAGI O'RNI**

**Sharapova Dildoraxon Baxtiyarovna**

International school of finance and technology science insituti o'qituvchisi,  
Psixologiya fanlari bo'yich falsafa doktori (PhD), [sharapovad@isft.uz](mailto:sharapovad@isft.uz)

**Alixo'jayeva Sevinch Shodiyor qizi**

International school of finance and technology science insituti Xorijiy tillar (ingliz  
tili) yo'nalishi, 1-bosqich 24-XTA-01 guruhi talabasi, [alijojayevasevinch@gmail.com](mailto:alijojayevasevinch@gmail.com)

**Tojiboyeva Sevinch Begimqul qizi**

International school of finance and technology science insituti Xorijiy tillar (ingliz  
tili) yo'nalishi, 1-bosqich 24-XTA-01 guruh talabasi, [tojiboyevasevinch@gmail.com](mailto:tojiboyevasevinch@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqola xorijiy so'zlarni vizual, audial va kinostetik xotira turlari  
yordamida eslab qolishning ahamiyatini o'rghanishga bag'ishlangan bo'lib, bunda xotira  
turlarining ta'limgadi o'mni, xorijiy so'zlarni o'rghanishda xotira nazariyalarini qo'llashning  
usul va uslublari muhimligini ko'rib chiqishga qaratiladi. Maqolada ta'larning tarkibiy  
qismlari orqali xorijiy tillarni o'rghanishdagi yondashuvlar tahlili keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** visual xotira, audial xotira, kinostetik xotira, xotira nazariyalar, individual  
yondashuv.

**Аннотация.** Данная статья посвящена изучению значения запоминания  
иностранных слов с использованием зрительного, аудиального и кинестетического  
типов памяти, роли типов памяти в обучении, метода применения теорий памяти при  
изучении иностранных слов и уделяет особое внимание рассмотрению важности  
запоминания иностранных слов. Стили. В статье представлен анализ подходов к  
изучению иностранных языков через компоненты образования.

**Ключевые слова:** зрительная память, аудиального память, кинестетическая память,  
теории памяти, индивидуальный подход.

**Annotation.** This article is devoted to the study of the importance of memorizing foreign  
words using visual, audio and kinesthetic types of memory, the role of memory types in  
learning, the method of applying memory theories in learning foreign words and pays  
special attention to the consideration of the importance of memorizing foreign words.  
styles. The article presents an analysis of approaches to learning foreign languages through  
educational components.

**Key words:** visual memory, audial memory, kinesthetic memory, memory theories,  
individual approach.

**Kirish:** Hozirgi davrda xorijiy tillarni o'rghanish va bilishning ahamiyati tobora  
ortib bormoqda. Har bir soha vakili yetuk mutxassis bo'lishi uchun o'z ona tilidan  
tashqari, dunyo tillaridan kamida ikki-uchtasini bilish talabi ortmoqda. Mamlakatimizda  
xorijiy tillarni o'rgatish ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida rivojlanish, ushbu

Date: 19<sup>th</sup> November-2024



yo'nalishda ta'lim sifatini tubdan oshirish, sohaga malakali pedagoglarni jalg etish hamda aholini xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish borasida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xorijiy tilni bilish hayotda o'z o'mnini topishda asosiy shartga aylanib ulgurdi. Ona tilidan tashqari kamida bitta xorijiy tilni bilish orqali jahon bo'ylab yuqori daromadli ish o'rniga ega bo'lism, tajriba almashish, bilimlarni oshirish imkonsiz. Umuman olganda, xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish bugungi ta'lim tizimidagi ustuvor maqsadlardan biriga aylandi. Buning samarasi esa hozir butun mamlakat bo'ylab yoshlar orasida til o'rganishga bo'lgan qiziqishning keskin ortib ketganida yaqqol yuzaga chiqdi. Ta'lim sohasidagi bu sa'y-harakatlar xorijiy tillarda tahlil olish va o'qitishda duch keladigan har qanday masalalarni hal etib, dunyo miqyosida vatanimiz ravnaqini ko'rsata oladigan ilm-fan, ta'lim va taraqqiyot nufuzini ko'tarishga o'zining salmoqli hissasini qo'shadi.

Vizual, audial va kinostetik xotiralarning xorijiy so'zlarni eslab qolishdagi o'rni yuqori bo'lib, bunda xotira turlaridan samarali foydalanish orqali turli usullar bilan ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlashga yordam beradi.

**1. Vizual xotira** – bu ma'lumotlarni ko'rish orqali eslab qolish bo'lib, xorijiy so'zlarni, ularning yozilishi yoki tasvirlarni ko'rish orqali osonroq eslab qolish mumkin. Odamlar narsalarni ko'rish orqali o'rganishadi. Xorijiy so'zlarni eslab qolishda ularni tasvirlar bilan bog'lash samarali bo'lishi mumkin. Masalan, "apple" so'zini eslab qolish uchun olma tasvirini ko'rish va ushbu so'zni tasvir bilan birga yodlashning o'zi kifoya. Bu so'zni xotirada saqlash va mustahkamlanishiga yordam beradi.

**2. Audial xotira** – tovush va ohang orqal o'rganishni anglatadi. Bu yondashuvda so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va qayta-qayta tinglash muhimdir. Bu orqali so'zning talaffuzi va ritmi yodda yaxshi saqlanib qoladi. Mazkur xotira uslubi orqali musiqa va she'rlarni yodlash, qo'shiqlar ijro qilish orqali xotirada yangi so'zlarni eslab qolishga erishiladi.

**3. Kinostetik xotira** – harakat va amaliyat orqali o'rganishdir. Ushbu usulda yangi so'zlarni jismoniy harakatlar yoki amaliyotlar bilan bog'lash samarali. Masalan, "run" (yugurmoq) so'zini yodlashda, yugurishni harakat sifatida bajarish orqali bu so'zni osonroq eslab qolishga erishish mumkin.

Mazkur xotira turlari ustunligiga ko'ra har bir insonning individual-psixologik xususiyatlari, intellect darajasi va kognitiv holati bilan bog'liq. Har bir shaxs o'zidagi ustunlikdan foydalanib, xorijiy so'zlarni o'rganish jarayonini yengillashtirishi mumkin.

Xorijiy til bilamiz-ki, biz uchun begona, insonlarning o'z ona tilisi bo'limgan tildir. Xorijiy tillarni o'rganish uchun maktablar, til kurslari va boshqa didaktik yo'llar, jumladan onlayn tarzda xorijiy tillarni o'rganishi, bunda bolalar bilan o'yin orqali o'rganishi mumkin.

Xorijiy tillarni o'rganishning ahamiyati va uslublari bir qator adabiyotlarda dolzarb masala sifatiga ko'rib chiqilgan, jumladan, til o'ganishning nazariy va amaliy jihatlarini **Stephen D.Krashen – Principles and Practice in Second Language Acquisition** (*Ikkinci tilni o'zlshtirishning asosiy tmoyillari*) kitobida til o'ganishning nazariy

Date: 19<sup>th</sup> November-2024

tamoyillari, o'rganish va bilim egallash jarayonlari, til o'rganishda motivatsiya va kognitiv usullar haqidagi ko'plab izlanishlar yoritilgan bo'lsa, **David Crystal – The Cambridge Encyclopedia of Language** (*Til ensiklopediyasi*) kitobida tilning kelib chiqishi, tuzilishi va rivojlanishi haqida umumiy ma'lumot beriladi. Crystal tilning lingvistik asoslari, muloqot shakllari va chet tilini o'rganishda oid mavzularni keng qamrovli yondashuvda ko'rib chiqadi. **Michael Swan – Practical English Usage** (*Ingliz tilining amaliy qo'llanmasi*) kirobida grammatikani aniq va oson tushuntirish usuli, ingliz tilidagi grammatikani o'rganish va tushunishda yordam beradigan amaliy misollar keltiriladi. **Benny Lewis-Fluent in 3 Months** (*3 oyda erkin gaplashish*) kitobida til o'rganishda tez natijalarga erishish uchun samarali strategiyalarni taklif qiladi. Benny Lewis tez o'rganish usullari, muntazam amaliyat va o'rgangan tilida dadil suhbatlashish usullarini yoritib beradi. **Paul Nation – Learning Vocabulary in Another Language** (*Boshqa tilda so'z boyligini o'rganish*) kitobida so'z boyligini oshirishga oid samarali usullarni ko'rsatadi. Yangi so'zlarni yodlash va ularni amaliyatda ishlatish usullari mazkur kitobning asosiy tadqiqot obyektidir. **Linguistic Books and Materials from Pilyglots** (*Poliglotlar tomonidan yozilgan kitoblar*) qo'llanmasi mashhur poliglotlar, masalan, Kato Lomb, Tim Ferriss va boshqa mutaxassislar tomonidan yozilgan kitoblar asosida til o'rganish strategiyalarini taqdim etadi. Bu kitoblar til o'rganishdagi turli yondashuvlar va usullardan foydalanib, chet tilini o'rganishda muvaffaqiyatga erishish uchun nazariy va amaliy ko'rsatmalar beradi.

Xotira qobiliyati xorijiy tillarni o'rganishda juda muhim o'rinn tutadi, chunki tilni samarali o'rganish uchun yangi so'zlar, grammatik qoidalar, talaffuz va iboralarni eslab qolish talab etiladi. Xotira bilan bog'liq turli nazariyalar bu jarayonni qanday optimallashtirish mumkinligini tushuntirib beradi. Quyida xotira nazariyalarining xorijiy tillarni o'rganishdagi ahamiyati keltirib o'tilgan:

**1. Ikkilamchi kodlash nazariyasi** (*Dual Coding Theory*) Allan Paivio tomonidan ishlab chiqilgan ushbu nazariyaga ko'ra, xotirani kuchaytirish uchun vizual va verbal kodlash birgalikda qo'llaniladi. Chet tilidagi so'zlarni o'rganayotganda ularni rasmlar yoki tasvirlar bilan bog'lash, ma'nosini aniq tasavvur qilish orqali eslab qolish osonlashadi. Masalan, "sun" so'zini quyosh tasviri bilan birgalikda yodlash so'zning xotirada yaxshiroq saqlanishiga yordam beradi.

**2. Ishchi xotira nazariyasi** (*Working Memory Theory*) Alan Baddeley va Graham Hitch tomonidan taklif qilingan ushbu nazariya, ishchi xotira o'rganilayotgan ma'lumotni qisqa muddatga xotirada saqlaydi va uni qayta ishlga tushiradi. Til o'rganishda yangi so'z va iboralarni eslab qolish uchun ishchi xotirani samarali ishlatish muhimdir. Bu nazariya orqali talaffuz va grammatik qoidalarni eslab qolish ahamiyatlari sanaladi.

**3. Jarayonni darajali qayta ishlash nazariyasi** (*Levels of Processing Theory*) Craik va Lockhart tomonidan ishlab chiqilgan mazlkur nazariyaga ko'ra, ma'lumotni qanchalik chuqurroq qayta ishlasak, u xotirada shunchalik mustahkam saqlanadi. Til o'rganishda qaytarish va yangi so'z ma'nolarini tahlil qilish, ulardan gaplar tuzish, o'qilgan matnni muhokama qilish til o'rganishni takomillashuviga yordam beradi.

Date: 19<sup>th</sup> November-2024

**4. Intervalli takrorlash va ommaviy amaliyat nazariysi** (*Spaced Repetition vs. Massed Practice*) Hermann Ebbinghaus tomonidan o'tkazilgan taqdriqotlar asosida rivojlangan mazkur nazariyaga ko'ra, ma'lumotni takrorlash orqali o'rganish, ya'ni vaqtiga bilan qisqa muddatli takrorlash bilan o'zlashtirish samarali ekanligi qayd etilgan. Til o'rganishda yangi so'zlarni takrorlash yordamida muntazam ravishda eslab qolish ma'lumotlarni uzoq muddatli xotiraga joylashishiga hissa qo'shami.

**5. Uzoq muddatli va qisqa muddatli xotira modeli.** Uzoq muddatli va qisqa muddatli xotira nazariyasiga ko'ra, yangi so'zlar grammatik qoidalarni dastlab qisqa muddatli xotirada saqlab, muntazam takrorlash bilan ularni uzoq muddatli xotiraga o'tkazish kerak. Til o'rganishda mazkur model so'zlarni tez-tez qayta eslab turishni va ularni kundalik amaliyotda qo'llashni tavsiya etadi.

**6. Konneksionizm** (*Connectionism*) nazariyasi – til o'rganish miya neyronlari o'rtaida yangi bog'lanishlarni shakllantirish orqali amalga oshadi. O'rganilayotgan tilni tinglash, gapirish, yozish va o'qish kabi amaliyotlar orqali miya yangi neyron bog'lanishlarini hosil qiladi va tilni yaxshiroq o'zlashtirish imkonini beradi. Bu nazariyalar chet tilini o'rganish, yodda saqlash va ma'lumotlarni uzoq muddatli xotiraga joylashtirishda yordam beradi. Turli xil xotira texnikalarini qo'llash til o'rganish jarayonini yengillashtiradi va samaradorligini oshiradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozim-ki, xorijiy so'zlarni o'rganishda individual yondashuv, har bir shaxsning o'ziga xos o'rganish uslubi, xotira turi va motivatsiya darajasiga qarab moslashgan o'qitish usulini tanlashni aglatadi. Jumladan, o'rganish uslublari va xotira turlariga moslashish, har bir insonning o'ziga xos o'rganish uslubi mavjud. Masalan, vizual o'rganuvchilar so'zlarni eslab qolishda tasvirlar, jadvallar va diagrammalar bilan ishlashdan foyda ko'rishadi. Ularga yangi so'zlarni o'zida aks ettiruvchi rasmlar bilan bog'lash, rangli kartochkalar bilan ishash yaxshi natija beradi. Audial o'rganuvchilar tovushlar orqali yaxshiroq eslab qolishadi. Ular uchun so'zlarni qayta-qayta eshitish, talaffuzni mashq qilish yoki podcast va audiokitoblardan foydalanish foydali. Kinestetik o'rganuvchilar harakat orqali o'rganishni afzal ko'rishadi. Bunday o'rganuvchilar yangi so'zlarni jismoniy harakatlar bilan bog'lash, real hayotiy vaziyatlarda so'zlarni ishlatalish orqali samarali o'rganishadi. Shunday qilib, xorijiy so'zlarni o'rganishda individual yondashuv o'quvchining ehtiyojlari, o'rganish uslubi va xotira turiga moslashgan o'qitish strategiyalarini tanlshni nazarda tutadi. Bu usul o'rganish jarayonini tezlashtiradi va qiziqarliroq qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Arif, M. The application of psychology in teaching foreign languages Retrieved from <http://journal.unbariac.id./index.php/JIP/article/views/75 - 2012>
2. Rustamova L, Soliyeva D. Xorijiy tillarni o'qitishda psixologik bilimlarning ahamiyati. Retrieved from <https://cyberleninka.ru/article/n/xorijiy-tillarni-o-qitishda-psixologik-yondashuv-katta-yoshli-talabalar-misolida>.
3. Kudysheva A. A. Psychology of teaching foreign languages. 2010

Date: 19<sup>th</sup> November-2024

4. Baxtiyarovna, S. D. (2022). Xotira: mustahkamlash yo'llari, usullari va vositalari. Scientific Impulse, 1(4), 328-333.
5. Baxtiyarovna, S. D., Gavhar, G., & Jasmina, N. (2022). Pedagogik faoliyatda kreativ yondoshuv. Scientific Impulse, 1(3), 385-388.
6. Baxtiyarovna, S. D. Shukurullo oglu, NJ (2022). Tibbiyot xodimlarining hissiy-emotsional xususiyatlari. Scientific Impulse, 1(3), 439-443.
7. Якубова, Г. А., & Олимжонова, З. Б. К. (2022). Мактабгача ёшдаги болаларнинг психофизиологик ривожланиши. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(5), 681-689.
8. Ziynat, O., & Nafosat, S. (2023). Psixologiyada ong va ong haqidagi nazariyalar. Scientific Impulse, 1(8), 857-860.

